


94
MC-64.

KOMILOVA N.K., OBLAQULOV H.A.

MADANIY GEOGRAFIYA



91
Ж-64

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAYLIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLY UNIVERSITETI

Komilova N.K., Oblaqllov H.A.

MADANIY GEOGRAFIYA

O'quv qo'llanma

5A140602 - Geografiya (o'rganish ob'ekti bo'yicha)
mutaxassislīgi uchun

- 13713/14 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TAYLIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

«ZEBO PRINT»
TOSHKENT - 2021

UO'K: 91(075.8)

KBK: 26.8ya73

K 64

Komilova N.Q., Oblaqulov H.A.

Madaniy geografiya [Matn]: o'quv qo'llanma / N.Q. Komilova, H.A. Oblaqulov. - Toshkent: «ZEBO PRINT», 2021. - 184 b.

Mas'ul muharrir:

N.I.Safarova g.f.n., dotsent

Tagrirlahlar:

Kolonov B.H. g.f.n., dotsent

Qarshiboyeva L.K. g.f.n., dotsent

Egamberdiyeva U.T. dotsent

Mazkur o'quv qo'llanmada madaniy geografiyaning mohiyati, asosiy jarayonlari, rivojlanish qonuniyatlari ko'rib chiqilgan. O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari 5A140602-Geografiya (o'rganish ob'yekti bo'yicha) mutaxassisligi uchun uchun mo'ljallangan. Shuningdek, undan magistrlar, tadqiqotchilar va madaniy geografiya bilan qiziquvchilar ham foydalanishi mumkin.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 31 maydagi 237-sonli buyrug'iga asosan 237-191ro'yxat raqami bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISKRYAM BPAI237 TORPOXA

ISBN 978-9943-7920-6-7

KIRISH

Keyingi yillarda mustaqil respublikamizda an'anaviy iqtisodiy geografiyaning sotsiallashuvi va uning keng ma'nodagi sotsial geografiyaga aylanib borish jarayoni sodir bo'lmog'da-ki, bu albatta ijobiy holatdir. Imiy tadqiqotlarning bosh mavzusi sifatida ko'proq ilgari, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa masalalari yotgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, aholi va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan jihatlarini o'rganishga, ayniqsa, turmush tarzi, urf-odatlarini, dini, xulq-atvori bilan bog'liq jihatlarini o'rganishga qiziqish orib bormog'da.

Madaniy geografiya - aholini yashash tarzi va sharoiti, dini, urf-odati, milliy qadriyatlarini, dam olishi, davolanishi kabi ko'pgina sotsial hodisa va voqealarning hududiy tomonlari va xususiyatlari to'g'risida ma'lumot beradi. Demak, madaniy geografiya aholining ijtimoiy va tabiiy muhit bilan aloqasini o'rganadi. Aytish lozimki, fanlar orasida madaniy geografiya fani muhim ahamiyat kasb etadi. Geograf mutaxassislar tayyorlashda "Madaniy geografiya" o'quv kursi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur o'quv qo'llanmada so'z madaniy geografiyaning nazariy masalalariga, uning muhim tarmoqlaridan fan, ta'lim, turmush tarzi, urf-odatlar, xulq-atvor, din (konfessional), turizm va rekreatsiya, fan hamda, ta'lim geografiyasining xususiyatlari, nazariy-uslubiy muammolariga qaratilgan. Shuningdek qo'llanmada ba'zi boblarini tayyorlashda Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino singari buyuk ajdodlarimiz ilmiy meroslariga keng murojaat etildi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni e'tirof etish mumkinki, oliy o'quv yurtlarining madaniy geografiya o'quv dasturi asosida tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanmaning yaratilishi dolzarb ahamiyatga ega. Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ta'lim to'g'risidagi me'yoriy hujjatlari, hamda yetakchi geograf olimlar tomonidan ilgari surilgan ilg'or tajribalar asosida yaratildi.

Mualliflar

1-MAVZU. MADANIY GEOGRAFIYANING OBYEKTI, PREDMETI VA TUZILISHI

Reja

1. Madaniyat va madaniyat geografiyasi haqida tushuncha.
2. Madaniy geografiyaning asosiy tarmoqlari.
3. Til geografiyasi.
4. Din geografiyasi.
5. Xulq-atvor geografiyasi.
6. Madaniyat-mintaqaning muhim belgisi sifatida

Maqsd: talabalarга madaniy geografiyaning mustaqil fan sifatidagi ahamiyati, uning obyekti, predmeti va tuzilishi haqida tushuntirish.

Tayanch soʻz va iboralar: Madaniyat tushunchasi, etnogeografiya, til geografiyasi, din geografiyasi, iqtisodiy geografiya, ichon mam-lakatlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy-geografik tadqiqotlar.

Madaniyat tushunchasi faqatgina sanʼat bilan bogʻliq faoliyatga xos tushuncha emas, garchi musiqiy va badiiy faoliyatni taʼriflash uchun "madaniyat" termini qoʻllanilsa-da, ushbu tushuncha biror-bir jimgoiy guruh, sinf yoki xalqning maʼlum davrda qoʻlga kiritgan yutuqlarini ifoda etadi. Madaniyat soʻzi Madina shahri nomi bilan bogʻliq holda kelib chiqqan. Fanda, odamlar oʻrtasidagi mulogʻotda madaniyat soʻzi bilan bir qatorda kultura soʻzi ham ishlatiladi.

Kultura soʻzi lotincha "culture" soʻzidan olingan boʻlib, "ishlov berish", "ekib oʻstirish" maʼnosini bildiradi. Rus faylasufi N.Berdyaev va V.Rozinovlar "kultura" soʻzining "kul", yaʼni diniy ibodat, sigʻinish soʻzidan kelib chiqqanligini qayd etganlar. Fanda, odamlar oʻrtasidagi mulogʻotda madaniyat soʻzi bilan bir qatorda kultura soʻzi ham ishlatiladi.

Qadimgi Rimda madaniyat deganda shaxsning tarbiyalanganligi, maʼrifatlilik darajasi tushunilgan. Keyinroq madaniyat deganda shaxsning qadr-qimmat, takomilligi tushunilgan. Nemis faylasufi F.Shiller kishilardagi insoniylik fazilatlarini, uning ichki dunyosi, maʼnaviylik darajasini madaniyat, deb tushuntirgan.

Eslatish lozimki, madaniyat atamasini ilm-fanga amerikalik

madaniyatshunos olim Eduard Teylor kiritdi va bu borada dunyoning turli tillarida bir qator kitoblar va 250 dan ortiq maqolalarni nashr etgan.¹

Eduard Teylor - madaniy rivojlanishning evolutsion nazariyasining asoschisi hisoblanadi (1-rasm). Dinning kelib chiqishi haqidagi animistik nazariyaning asoschisi. U madaniyatni jamiyatdagi odamlar hayotini yaxshilash maqsadida ongli ravishda yaratilgan oqilona vosita deb hisoblagan.

Har qanday jamiyatdagi odamlarning har bir keyingi avlodi avvalgisidan farqli, rivojlangan madaniy muhida yashaydi. Jamiyatda qancha bilimli, madaniyatli insonlar koʻp boʻlsa, jamiyat shunchalik rivojlangan boʻladi, u deydi.

Madaniyat soʻzining maʼno-mazmunini quyidagicha tushunish mumkin:

1. Madaniyat – uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va maʼnaviy boyliklar, asori-atigalar yigʻindisi.

2. Madaniyat – u yoki bu jamiyatga xos falsafiy qarashlar, ilm, fan, maorif, sanʼat, axloq, din, huquq, siyosat maishiy xizmat koʻrsatish darajasini aks ettiruvchi omillar, ijtimoiy taraqqiyot darajasi.



1-rasm. Eduard
Teylor
(1836-1917)

¹ Eduard Bernet Teylor (1832 - 1917) - ingliz etnologi, madaniyatshunosi, diniy marosim va marosimlar tadqiqotchisi. Etnologiya va antropologiyaning asoschilaridan biri. Teylor 1832 yilda Londonning Kanbervell chekkasida dindor sanoatchi oilasida tugʻilgan. Uning rasmiy taʼlimi Quaker maktabi bilan cheklangan, shundan soʻng u oilasiga yordam bera boshlagan. 1855 yilda shifokorlarning talabi bilan Teylor uzoq safarga oltanadi. 1856-yilda Kubaga qilgan safari chogʻida u boy filantrop G.Kristi bilan uchrashib, uning antik davrni oʻrganishga qiziqishini uygʻotdi. Angliyaga qaytib, Teylor oʻz-oʻzini tarbiyalash va etnografiya va antropologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar bilan shugʻullanadi. U oʻzining birinchi rasmiy lavozimini faqat 1883 yilda, Oksford universitetidagi Etnografiya muzeyining kuratori boʻlib oldi. 1884 yilda u Oksfordda antropologiya boʻyicha oʻqituvchi, 1886 yilda esa Aberdin universitetida assistent lavozimiga tayinlangan. Teylor Angliya Qirollik jamiyati aʼzosi boʻlgan va ikki marta Buyuk Britaniya va Irlandiya Antropologiya instituti prezidenti etib saylangan. E. Teylor 1917 yilda Oksfordda vatot etdi.

3. Madaniyat - insonlar hayotida, jamiyat rivojida shakllangan milliy, umuminsoniy qadriyatlar majmui.

4. Madaniyat - har bir kishining tarbiyalanganligi, insoniylik fazilatlari va ijodiy faoliyati ifodasidir.

Madaniyatni qo'llanishiga qarab shaxsiy, oilaviy, kasbiy, tabaqaviy, milliy madaniyat, jamiyat madaniyati, umuminsoniy madaniyat kabi shakllarga bo'lib o'rganish ham mumkin. Kundalik hayotda "muomala madaniyati", "mehnat madaniyati", "nuq mada-niyati", "ishlab chiqarish madaniyati", "xizmat ko'rsatish mada-niyati", "dam olish madaniyati", "huquqiy madaniyat" kabi tushun-chalar ham qo'llaniladi.

Madaniyat tushunchasi-eng avvalo quyidagicha izohlanadi:

1. Madaniyat geografyasi kishilarning hayot tarzi, kashfiyotlari, hudud va ilohiy kuchlarga munosabatlarini o'rganish sifatida tushuniladi.

2. U qanday holarda va nima sababdan turli joylarda turli ko'ri-nishlarda ifodalanihini tadqiq qiladigan inson geografiyasi tar-kibidagi mustaqil yo'nalishdir.


3. U madaniyatning moddiy komponentlari va nomoddiy kom-ponentlarini o'rganishni taqozo etadi.

4. Madaniyatning moddiy komponentlari kiyim-kechak va arxitektura kabi aniq moddiy ko'rinishdagi buyumlarni qamrab oladi.

5. Madaniyatning nomoddiy komponentlari odamlarning o'y-fikrlari va g'oyalari ularning dini va e'tiqodlarini qamrab oladi.

Madaniy geografiya tarkibiga - ba'zi asosiy madaniy hodisalarga til, din, turli iqtisodiy va davlat tuzilmalari, san'at, musiqa va boshqa madaniy jihalar kiradi.

Aytish lozimki, globallashtiruv, bu sohada tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki, bu madaniyatning o'ziga xos jihalarini butun dunyo bo'ylab osongina targ'ishiga imkon beradi.



2-rasm. Madaniyat geografyasi tuzilmasi

Madaniyat geografyasi tarkibiga ko'ra ikki qismga bo'linadi. Ular tarmoq va majmuasi yo'nalishlari bo'lib, mantiqan bir-birini to'ldiradi (2-rasm)

Madaniyat inson hayotida muhim vazifalarni bajaradi. Ular orasida quyidagilarni alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin. Madaniyat, avvalo, ijtimoiy vazifalarni, ya'ni shaxsni, odamni inson qilib shakllantirish va tarbiyalash vazifasini bajaradi. Madaniyat har bir shaxsning insoniyat yaratgan bilimlarni, ma'naviy qadriyatlarini, tarbiy-qoidalarni o'zlashtirib olish, tarbiyalash, jamiyatning to'la huquqli a'zosi sifatida faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantirish vazifasini bajaradi. Insonning tabiat hukmronligidan ajralib chiqishi madaniyatga xos ayrim elementlarning shakllanishi bilan birga sodir bo'ladi. Aynan madaniyat orgali har bir shaxs jamiyatda to'plangan tajribalarni, an'analar va urf-odatlarini, turmush tarzini o'zlashtiradi, ular keyingi avlodlarga yetkaziladi.

Madaniyat axborotlarni o'zlashtirish, bilish, tushunish vazifasini bajaradi. Madaniyat inson uchun dunyoni bilish, dunyo to'g'risida turli ma'lumotlar, axborotlar olish, ularni avlodidan avlodga o'tib